

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI

**FarDU.
ILMIY
XABARLAR-**

1995 yildan nashr etiladi
Yilda 6 marta chiqadi

4-2023

**НАУЧНЫЙ
ВЕСТНИК.
ФерГУ**

Издаётся с 1995 года
Выходит 6 раз в год

FarDU. ILMYX XABARLAR – НАУЧНЫЙ ВЕСТНИК.ФЕРГУ

Muassis: Farg'ona davlat universiteti.

"FarDU. Ilmiy xabarlar – Научный вестник. ФерГУ – Scientific journal of the Fergana State University" jurnali bir yilda olti marta elektron shaklda nashr etiladi.

Jurnal pedagogika, filologiya, tarix, falsafa, siyosat, kimyo, biologiya hamda geografiya fanlari bo'yicha O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan.

Jurnaldan maqola ko'chirib bosilganda, manba ko'rsatilishi shart.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan 2020-yil 2-sentabrda 1109 raqami bilan ro'yxatga olingan.

Muqova dizayni va original maket FarDU tahririyyat nashriyot bo'limida tayyorlandi.

Tahrir hay'ati

Bosh muharrir
Mas'ul muharrir

SHERMUHAMMADOV B.SH.
ZOKIROV I.I.

FARMONOV Sh. (O'zbekiston) BEZGULOVA O.S. (Rossiya) RASHIDOVA S. (O'zbekiston) VALI SAVASH YYELEK (Turkiya) ZAYNOBIDDINOV S.(O'zbekiston) AXTARIYEVA R. (Rossiya)	JEHAN SHAHZADAH NAYYAR (Yaponiya) LEEDONG WOOK (Janubiy Koreya) A'ZAMOV A. (O'zbekiston) KLAUS XAYNSGEN (Germaniya) RAKETIN O. (Rossiya)	G'ULOMOV S.S. (O'zbekiston) BERDISHEV A.S. (Qozog'iston) KARIMOV N.F. (O'zbekiston) CHESTMIR SHTUKA (Slovakiya) TOJIBOYEV K. (O'zbekiston) TURAYEV A. (O'zbekiston)
--	--	--

Tahririyat kengashi

IJTIMOIY GUMANITAR FANLARI BO'YICHA		ANIQ VA TABIIY FANLAR BO'YICHA	
EGAMBERDIYEVA T. (O'zbekiston)	FarDU, p.f.d.prof.	MAMAJONOV M. (O'zbekiston)	FarDU, f.f.b.f.d.dots.
XONKELDIYEV Sh. (O'zbekiston)	FarDU, p.f.d.prof.	KAXAROVA M (O'zbekiston)	FarDU, f.f.n.dots.
TOJIBOYEVA H. (O'zbekiston)	Ped.ilm.tad.instituti. p.f.d.(Dsc)	ISOMIDDINOV F. (O'zbekiston)	FarDU, f.f.n.
O'RINOVA N. (O'zbekiston)	FarDU, p.f.n.dots.	SABIRDINOV A. (O'zbekiston)	FarDU, f.f.d.prof.
USMONOV B. (O'zbekiston)	FarDU, p.f.d.	RAHIMOV Z. (O'zbekiston)	FarDU, f.f.d.
DAVLATYATOVA G. (O'zbekiston)	FarDU, p.f.n.	XOSHIMOVA N. (O'zbekiston)	FarDU, f.f.b.f.d.dots.
G'OFUROV A. (O'zbekiston)	FarDU, i.f.d.prof.	MIRZAYEVA D. (O'zbekiston)	FarDU, f.f.b.f.d(PhD)
XONKELDIYEVA G. (O'zbekiston)	FarDU, i.f.d.prof.	ANIQ VA TABIIY FANLAR BO'YICHA	
HOLMATOV B. (O'zbekiston)	FarDU, l.f.n.	O'RINOV A.Q. (O'zbekiston)	FarDU, f.m.f.d.prof.
XAKIMOV N. (O'zbekiston)	FarDU, f.f.d. dots.	KARIMOV Sh.T (O'zbekiston)	FarDU, f.m.f.d.dots.
ISOMIDDINOV M. (O'zbekiston)	FarDU, t.f.d.	OTAJONOV S. (O'zbekiston)	FarDU, f.m.f.d.prof.
USMONOV B. (O'zbekiston)	FarDU, t.f.d (DSc)	RASULOV R. (O'zbekiston)	FarDU, f.m.f.d.prof.
MAXMUDOV O. (O'zbekiston)	FarDU, t.f.d.dots	ONARQULOV K. (O'zbekiston)	FarDU, f.m.f.d.prof.
ALIMOVA N. (O'zbekiston)	FarDU, t.f.f.d.(PhD)	SHUHRATOV SH. (O'zbekiston)	FarDU, t.f.b.f.d dots.
JO'RAYEV H. (O'zbekiston)	FarDU, t.f.d(PhD).dots.	ASQAROV I. (O'zbekiston)	AnDU, k.f.d.prof.
MAMATOV M. (O'zbekiston)	FarDU, t.f.d (PhD).prof.	IBRAGIMOV A.(O'zbekiston)	FarDU, k.f.d.prof.
AHRORQULOV A. (O'zbekiston)	FarDU, t.f.b.f.d(PhD)	MAMATQULOVA S. (O'zbekiston)	FarDU, k. f.b.f.d (PhD)
G'ANIYEV B. (O'zbekiston)	FarDU, f.f.d.dots.	ABDUG'ANIYEV O. (O'zbekiston)	FarDU, g.f.d.(DSc)
MAMAJONOVA A. (O'zbekiston)	FarDU, f.f.d.prof.	AXMADALIYEV Yu. (O'zbekiston)	FarDU, g.f.d.prof.
ISKANDAROVA Sh. (O'zbekiston)	FarDU, f. f.d.prof.	YULDASHEV G. (O'zbekiston)	FarDU, q.x.f.d.prof.
SHUKUROV R. (O'zbekiston)	FarDU, f.f.n.dots.	ISAG'ALIYEV M. (O'zbekiston)	FarDU, b.f.d.prof.
YULDASHEVA D. (O'zbekiston)	FarDU, f.f.doktori.	SHERALIYEV B. (O'zbekiston)	FarDU, b.f.d.(PhD).
UMAROVA N. (O'zbekiston)	FarDU, f.f.doktori.	SHERMATOV M. (O'zbekiston)	FarDU, b.f.n. dots.

Muharrir:

Sheraliyeva J.

Tahririyat manzili:

150100, Farg'ona shahri, Murabbiylar ko'chasi, 19-uy.

Tel.: (0373) 244-44-57. Mobil tel.: (+99891) 670-74-60

Sayt: www.fdu.uz. Jurnal sayti

Bosishga ruxsat etildi:

Qog'oz bichimi: - 60×84 1/8

Bosma tabog'i:

Ofset bosma: Ofset qog'ozi.

Adadi: 10 nusxa

Buyurtma №

FarDU nusxa ko'paytirish bo'limida chop etildi.

Manzil: 150100, Farg'ona sh., Murabbiylar ko'chasi, 19-uy.

Farg'ona, 2023.

YANGI O'ZBEKISTONDA TA'LIM TIZIMIMIZDAGI MUAMMO VA YECHIMLAR

Urazimbetova Barno Xayitbayevna¹

¹ Urazimbetova Barno Xayitbayevna

— Chirchiq davlat pedagogika universiteti
Gumanitar fanlar fakulteti, milliy g'oya,
ma'nnaviyat asoslari va huquq ta'limi
kafedra o'qituvchisi.

KIRISH

Shavkat Mirziyoevning O'zbekiston Respublikasi Prezidenti sifatida birinchi imzolagan qonun hujjati - 2016 yil 14 sentyabrdagi «Yoshlarga oid davlat siyosati to'g'risida»gi Qonun ekanida ham ramziy mazmun-mohiyat mujassam. Binobarin, aholisining yarmidan ko'prog'i yoshlardan iborat bo'lgan mamlakatda yoshlarga oid davlat siyosatini izchil amalga oshirish, yosh avlodni har tomonlama yetuk va barkamol, intellektual salohiyatlari, o'z qat'iy pozitsiyasiga ega, yurtda amalga oshirilayotgan islohotlarga befarq bo'lmagan, yurtning ertangi munosib kelajagi uchun daxldorlikka tayyor, maqsadga intiluvchan, serg'ayrat, vatanparvar, sadoqatli, komil shaxslar sifatida tarbiyalash O'zbekistonni dunyoning eng rivojlangan davlatlari safidan o'r'in olishining muhim omili ekanini mamlakat rahbari va hukumat yaxshi anglaydi[1]

ADABIYOTLAR TAHЛИLI

Misirlik taniqli rejissyor Muhammad Sobhining jamiyat haqida shunday fikr bildiradi: "Qadimgi xitoyliklar Vatanni himoya qilish va osoyishta yashash maqsadida Buyuk Xitoy devorini barpo etadilar. Ular bu devordan hech kim oshib o'ta olmaydi, deb o'ylashgan. Ammo, devor qurilgandan keyin yuz yil ichida Xitoy davlatiga uch marotaba juda katta hujum bo'ldi. Uch safar ham devorni buzishning yoki undan oshib o'tishning keragi bo'lmadi. Dushman posbonlarga pora berib, darvozani ichkaridan ochtirib, bemalol kirib kelaverdi. Xitoyliklar devor qurishga berilib ketib, haqiqiy qo'riqchilar tarbiyalashni unutgan edi". Jahondagi rivojlangan davlatlar tarixiga nazar tashlaydigan bo'lsak, ularda jamiyat hayotini o'zgartirishga qaratilgan islohotlar avvalo ta'limga tizimidan, bog'cha, mакtab, tarbiya masalasidan boshlanganini ko'ramiz. Chunki maktabni o'zgartirmasdan turib, odamni, jamiyatni o'zgartirib bo'lmaydi. Ta'limga va tarbiyaning asosi, poydevori bu - maktab. Maktabni maktab qiladigan kuch esa o'qituvchilardir. Har qanday davlatning tarixiy taraqqiyot yo'lidan ma'lumki, yurtning jadal rivojlanishi, muayyan yutuqlarga erishishi, xalqning farovon bo'lishi o'sha davlatda yoshlar ta'limga tarbiyasi va kelajagiga beriladigan e'tibor darajasiga chambarchas bog'liq. Shu ma'noda, O'zbekistonda yoshlar masalasi davlat siyosatining eng ustuvor yo'naliishlaridan biri hisoblanadi[1]. Rivojlangan Singapur, Janubiy Korea, Yaponiya kabi davlatlar ta'limga yuksak davlat siyosati darajasida etibor qaratishi natijasida rivojlangan industrial davlatni barpo eta oldi. Bilamizmiki rivojlangan davlatlarning asl ildizi ta'limga borib taqaladi. Biz shu davlatlardek bo'lishga intilib chiroyli maktab va universitet binolari, so'nggi rusumdagagi o'quv jihozlari, prezidentimiz tomonidan yoshlarga berilayotgan imkoniyatlar, yoshlarimizning qaysidir sohani mutaxasisi bo'lib yetishi uchun barcha imkoniyatlarni muhayyo qildik. Haqiqiy insonni tarbiyalash toshdan bino qurishdan muhimroqdir. Bugun amaldagi ta'limga tizimimiz zamonaviy, rivojlangan davlatlardagi kabi globallashuv talablariga javob bera olayaptimi? Bizning ta'limga tizimimiz bunga javob bera oladimi? Shu kabi savollar bugungi kun dolzarb mavzusidir. O'zbekiston Respublikasi Ta'limga to'g'risidagi qonuni 7 - moddasida ta'limga turlari belgilab qo'yilgan. Ta'limga turlari quyidagilardan iborat:

- 1.maktabgacha ta'limga tizim;
- 2.umumiy o'rta va o'rta maxsus ta'limga tizim;
- 3.professional ta'limga tizim;
- 4.oliy ta'limga tizim;
- 5.oliy ta'limga tizim;
- 6.kadrlarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish;
- 7.maktabdan tashqari ta'limga tizim[2].

Davlatimiz rahbari prezidentlik faoliyatining dastlabki kunlaridan boshlab yurtimizda innovatsion va kreativ fikrlaydigan zamonaviy kadrlar tayyorlash, yoshlarni vatanparvarlik ruhida,

yuksak ma'nnaviyat egalari etib tarbiyalash, shu maqsadda ta'lim tizimini takomillashtirish masalalariga alohida e'tibor qaratib kelmoqda. "Hurmatli muallimlarimiz, jonkuyar mifik direktorlarini, soha faxriylarini el-yurtimizning tayanchi va suyanchi, deb bilamiz, - dedi Prezidentimiz. - Maktablar tizimini rivojlantirish uchun bundan buyon ham mablag'ni, imkoniyatni aslo ayamaymiz. Kelajak avlodimiz taqdiri, butun millatimiz, xalqimiz, davlatimiz taqdiri muhtaram muallimlarga bog'liq". Ammo amalga oshirilayotgan ijobiy o'zgarishlarga qaramasdan, ta'lim tizimida hamon tizimli muammolar borligi, maktablarning moddiy-texnik bazasi, ayrim pedagog xodimlarning bilim va malakasi bugungi zamon talablariga javob bermasligi yig'ilishda tanqid qilindi. Ta'lim-tarbiya sohasida zamonaviy va oqilona tizim yaratish, o'qitish metodlari, ta'lim standartlari, darslik va o'quv qo'llanmalarini yangilash zarurligi, bilim berishda ilg'or xorijiy tajribalardan foydalanish, tarbiyada esa milliy an'ana va qadriyatlarga suyanish muhimligi qayd etildi[3]. Ulug' allommalarimiz - Mirzo Ulug'bek va Muhammad Xorazmiy nomidagi iqtidorli bolalar maktablari, Hamid Olimjon va Zulfiya, Erkin Vohidov, Abdulla Oripov, Ibroyim Yusupov, Is'hoqxon Ibrat, Muhammad Yusuf, Halima Xudoyberdieva nomlari bilan atalgan ijod maktablari, "Temurbeklar maktabi", Prezident maktablari, xususiy maktablarning singari yangi va zamonaviy namunadagi ta'lim dargohlari tashkil etilgani yurtimiz farzandlari uchun ta'lim-tarbiya olish borasida yangi imkoniyatlar ochib bermoqda[4]. Bugungi kunda o'quv muassasalarini bitirib chiqayotgan o'quvchi va talabalarda mustaqil fikrlash layoqati, ularda ilm-fan yutuqlariga, amaliyotga tayangan yechimlar qabul qilish uchun malaka va bilim asta shakllanib bormoqda. Shu bois mifik, kollej va akademik litseylarni bitirgan yoshlarimizning ko'pchiligi mustaqil hayotda o'z o'rnnini topishga imkoniyatlar yaratilmoqda. Sir emas, maktablarning akademik litseylar va kasb-hunar kollejlari bitiruvchilarining aksariyati oly o'quv yurtlariga birinchi yili o'qishga kirmoqda. Buning natijasida qo'shimcha ta'lim-repititor xizmatiga ehtiyoj oshib ketmoqda.

Ta'limda qo'shimcha-repititor xizmatiga ehtiyojning oshishi esa bu yurtimizda sifatli ta'limning raqobatbardosh bo'lishiga hizmat qilmoqda. Yurtimizdan xususiy ta'lim sektorining ko'payishi davlat maktablaring chetda qolib ketishiga, xususiy maktablarda yaxshi kadrlarga maoshining ko'p to'lanishi davlat maktablalaridagi iqtidorli kadrlarning xususiy maktablarga ketib qolishi ko'plab kuzatilmoqda. Bu esa davlat maktablarning quyi pog'onaga tushub qolishiga olib kelmoqda. Shavkat Mirziyoev mifik ta'limini rivojlantirish masalalari yuzasidan o'tkazgan videoselektor yig'ilishida bu sohadagi islohotlarni kechiktirmaslik lozimligini ta'kidladi va mifik ta'limi tizimidagi kamchilik va muammolarni sanab o'tdi. Bugungi kunda respublika bo'yicha 1695 ta mifik mukammal ta'mirga muhtojligi, hanuzgacha 179 ta paxsadan qurilgan mifik mavjudligi, 3 mingdan ziyod mifik uchun qo'shimcha o'quv binolari zarurligi tanqid qilindi[3]. Ilk mustaqillik yillarda maktablardagi ma'nnaviy-ma'rifiy muhit, o'qituvchi kasbining obro'yi, nufuzi pasayib ketgani, yangi davr pedagoglarning tarbiyalash, pedagogika fanini rivojlantirish, innovatsion ta'lim texnologiyalarini joriy etishga yetarli e'tibor berilmagani sohada bir qator jiddiy muammolarni keltirib chiqardi. Ta'lim muassasalarida o'quv jarayonini tashkil etishdagi pedagoglarning yo'l quyan kamchiliklarini bartaraf etish bugungi kun dolzarb vazifasidir.

Bundan tashqari, maktablarda ilmiy salohiyatlari kadrlar yetishmovchiligi ta'lim sifatining pasayishiga olib kelmoqda. Oly ta'lim, o'rtalik maxsus va umumiy o'rta ta'lim muassasalariga tekshirishga borgan komissiya a'zolari o'quvchi yoshlarning xulq-atvori, ta'lim tarbiyasi, egallayotgan bilim darajasini tekshirishga ko'proq e'tibor qaratishlari lozim. Bundan tashqari maktablarmizda yoshlarga ilmiy muhitni keng yaratib berishga va maktablardagi bor istedodlarni takomillashtirishga erishih lozim. Yurtimizdan yetishib chiqayotgan iqtidorli kadrlar AQSh, Yevropa mamlakatlariga ketib qolmoqda. Keyingi yillarda rivojlangan davlatlar jahoning barcha mamlakatlaridan talantli yosh olimlarni, jumladan davlatimizdagi iqtidorli yoshlarni ham turli grantlar va dasturlar asosida taklif qilib, ularning ilmiy salohiyatidan foydalanib, o'z mamlakatlari taraqqiyotini ta'minlamoqda. Oxirgi yillarda Xitoy, Hindiston, Janubiy Koreya ham turli dastur va grantlar bilan jahondagi rivojlanayotgan mamlakatlardan iste'dodli yoshlarni chaqirib olishmoqda. Bular safida o'zbekistonlik yoshlar talaygina. XX asr ma'rifatparvarlaridan biri, jadidchilik harakating namoyondasi Abdulla Avloniy tarbiya haqida shunday deydi: "Tarbiya biz uchun yo hayot - yo mamot, yo najot- yo halokat, yo saodat- yo falokat masalasidir" degan iborasi hali ham o'z qimmatini yo'qotgan emas. «Ta'lim-tarbiya – bu bizning kelajagimiz, hayot-mamot masalasi. Shu bois, bu sohadagi islohotlarni kechiktirishga haqqimiz yo'q. Qanchalik murakkab bo'lmisin, mifik ta'limida poydevorni bugundan mustahkam qo'yishimiz kerak. Chunki biz ko'p vaqt yo'qotganmiz», – dedi Shavkat Mirziyoev[2]. Darhaqiqat, dunyo bilan bo'yashishimiz uchun yoshlarimizning ta'lim-tarbiyasi muhim ahamiyat kasb etadi. Bizning maqsadimiz yurtimizdagi ta'lim tizimida

muammolarni izlashdandan iborat emas. Bizning asl maqsadimiz muammolarni bartaraf etib jamiyatdagi ta’lim tizimizni rivojlantirishdan iboratdir. Buning uchun nima qilishimiz kerak. Prezidentimiz aytganidek “Taraqqiyotning tamal toshi ham, mamlakatni qudratli, millatni buyuk qiladigan kuch ham ilm-fan, ta’lim va tarbiyadir.”[3]. Qomusiy olimlarimiz o’z ilmiy merosida insonning aqliy, axloqiy, jismoniy va estetik takomili masalalariga katta e’tibor berganlar. Masalan, Muhammad ibn Muso al-Xorazmiy insonning kamolga yetishi va insoniy munosabatlarni yo’lga qo’yishda ilm-fannning muhim ahamiyatga ega ekanligi to’g’risidagi g’oyalarni ilgari surgan.

NATIJA VA MUHOKAMA

Qanday ishlarni amalga oshirsak yurtimizda ta’lim tizimini rivojlantirgan va yoshlarimizni dunyoqarashini yanada o’zgartirishga erishamiz. Bu yo’nalishda juda ham ko’plab ishlarni amalga oshirishimiz kerak.

Birinchidan, maktabgacha ta’lim muassasalari, umumiy o’rtalim muassasalari akademik letsiy, kasb hunar kolleji hamda oliy ta’lim muassasalariga ilmiy muhitni yuksaltirish kerak. Ilm dargohlariga borayotgan yoshlarimiz faqat chuqur bilm olishlari kerak. Ularga yetarli shart-sharoitlar yaratish kerak.

Ikkinchidan, maktabgacha ta’lim muassasalari, umumiy o’rtalim muassasalari, akademik letsiy, kasb hunar kolleji hamda oliy ta’lim muassasalarida hamma uchun belgilangan ichki tartib intizomga barcha birdek rioya etishi kerak.

Uchunchidan, o’qituvchining maqomi va nufuzini oshirish, huquqlari va imtiyozlarini kengaytirish lozim. “Maktab o’qituvchisini moddiy rag’batlantirmsak, uning hayot sifati darajasini oshirmsak, islohot, natija haqida gapira olmaymiz”, dedi Prezident. O’qituvchi va murabbiylarning o’zi ham bilim va kasb mahoratini oshirish, jamoat ishlarida faol ishtirok etish, halol mehnati va tashabbuskorligi bilan bu kasbning obro’sini oshirishi kerak.

To’rtinchidan, maktabgacha ta’lim muassasalari, umumiy o’rtalim muassasalari, akademik letsiy, kasb hunar kolleji hamda oliy ta’lim muassasalaridagi sinflarda o’quvchilar soni 20-25 tani tashkil qilishi kerak. Sababi o’quvchilar sonining ko’pligi ularning ilim olishiga va bilim darajasiga salbiy ta’sir qiladi.

Beshinchidan, yurtimizda yoshlarimizga Oliy o’quv yurtlariga kirishlari uchun juda ham ko’plab imtiyozlarning berishi bu ta’limdagи haqiqiy ilmiy raqobatni kuchayishiga olib kelmoqda. Oliy o’quv yurtlariga kiruvchi abituriyentlar uchun davlat tomonidan berilayotgan barcha imtiyozlar bekor qilinishi va haqiqiy ilmiy raqobatni tashkil qilib berilsa albatta yaxshi natijaga erishiladi. Oltinchidan, umumiy o’rtalim muassasalari, akademik letsiy va kasb hunar kolleji bitiruvchilarining aksariyat qismi oliy o’quv yurtlariga kirish kerak. Buning uchun ta’lim sifatini yanada oshirish lozim.

Yettinchidan, yoshlarimizning dunyoqarashi rivojlanishi yanada yuksalishi uchun badiiy adabiyotlarga bo’lgan muhabbatini sezilarli darajada o’stirish, internet tarmog’idan to’g’ri va oqilonan foydalanishni o’rgatish, maktab hayoti, fidoyi o’qituvchilar haqida badiiy va hujjatli filmlar, sahna asarlari va videoroliklar yaratish lozim.

Sakkizinchidan yoshlarimizning ta’lim tarbiyasidagi muammolarni yechishda ota-onal, maktab, mahalla uchligini tashkil qilish kerak. Sababi yoshlarimizdagi ta’lim tarbiyasiga ko’proq maktab o’qituvchisi javobgar shaxs sifatida ajralib qolmoqda aslida farzand tarbiyasida jamiyatimizdagi har bir inson javobgar bo’lishi kerak. Maktablardagi kamchiliklarni tuzatish, ta’lim sifatini nazorat qilish uchun ota-onalar, keng jamoatchilikning ishtiroki zarur. “Maktab - bu hayot-mamot masalasi, kelajak masalasi. Uni davlat, hukumat va hokimlarning o’zi hal qilolmaydi. Bu butun jamiyatning ishi, burchiga aylanishi kerak”, deb ta’kidladi Sh.M.Mirziyoyev O’zbekistonda oliy ta’lim muassasalarida to’lov-kontrakt miqdori yuqorilig sabab ko’pchilik oilalar farzandini o’qitish uchun kredit olishi ham yo’lga qo’yilgan. Ta’lim kreditlari tijorat banklari tomonidan oliy ta’lim muassasalarining kunduzgi bo’limlariga to’lov-kontrakt asosida qabul qilingan O’zbekiston fuqarosi bo’lgan talabalarning o’qishi uchun ularning o’ziga, ota-onalariga yoki vasiylariga berilishi mumkin. Ammo kredit olish tartibini bilmaslik yoki bank xodimining mijozga to’g’ri-tuzuk tushuntirmasligi ortidan ko’p hollarda ortiqcha sarsongarchilik keltirib chiqaradi. Ta’lim kreditlari, oliy ta’lim muassasalarida o’qish davri hisobga olingan holda, bakalavriatga qabul qilingan talabalarga – 10 yilgacha, magistratura bosqichi talabalariiga – 5 yilgacha bo’lgan muddatga beriladi. Ta’lim kreditini olish uchun qarz oluvchi bankka quyidagi hujjatlarni taqdim etadi:

- a) ta’lim krediti berish to’g’risidagi ariza;
- b) talaba va oliy ta’lim muassasasi o’tasidagi to’lov-kontrakt asosida o’qish haqida belgilangan

tartibda rasmiylashtirilgan shartnoma. Ushbu shartnomada o'qishning belgilangan muddati va bir yil uchun to'lov miqdori ko'rsatilgan bo'lishi lozim.

c) kreditni qaytarishning ta'minlanishi to'g'risida hujjat;

d) imtiyozli ta'lif kreditlari olish huquqiga ega bo'lgan chin yetimlar, "Mehribonlik uylari"da tarbiyalanganlar, bolalikdan I va II guruh nogironlari, kam ta'minlangan oila farzandlari tegishli tasdiqlovchi hujjatlarni taqdim etadilar[5]. "Moddiy va ma'naviy hayotni uyg'un rivojlantirishimiz kerak. Maktab bu borada asosiy bo'g'in bo'lishi lozim. Maktab ta'lmini rivojlantirish biz uchun buyuk umummilliy maqsadga, umumxalq harakatiga aylanishi zarur", deb ta'kidlaydi davlatimiz rahbari.

Adabiyotlar

[1] O'zbekiston - Yoshlar mamlakati. "Taraqqiyot strategiyasi" markazi 24 iyul 2019 y.

[2] O'zbekiston Respublikasining Ta'lif to'grisidagi Qonuni, 23.09.2020 yildagi O'RQ-637-son.

[3] Prezident Shavkat Mirziyoyev raisligida mamlakatimizda ta'lif-tarbiya tizimini takomillashtirish, ilm-fan sohasi rivojini jadallashtirish masalalari muhokamasi bo'yicha videoselektor yig'ilishi. 30.10.2020y. <https://yuz.uz/uz/news/talim-tarbiya-tizimi-taraqqiyotning-yangi-bosqichi-muhokama-qilindi>.

[3] Maktab ta'lmini rivojlantirish umumxalq harakatiga aylanishi zarur. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev raisligida 23 avgust 2019 yil xalq ta'limi tizimini rivojlantirish, pedagoglarning malakasi va jamiyatdagi nufuzini oshirish, yosh avlod ma'naviyatini yuksaltirish masalalariga bag'ishlangan videoselektor yig'ilishidan.

[4] Prezident Shavkat Mirziyoyev raisligida mamlakatimizda ta'lif-tarbiya tizimini takomillashtirish, ilm-fan sohasi rivojini jadallashtirish masalalari muhokamasi bo'yicha videoselektor yig'ilishi. 30.10.2020y. <https://yuz.uz/uz/news/talim-tarbiya-tizimi-taraqqiyotning-yangi-bosqichi-muhokama-qilindi>.

[5] Ta'lif krediti qanday olinadi? Vazirlar Mahkamasining 2001 yil 26 iyuldaggi 318-sonli qarori bilan tasdiqlangan "Oliy o'quv yurtlarida to'lov-kontrakt assosida o'qish uchun ta'lif kreditlari berish to'g'risidagi nizom"